

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

G.T.Xusanova	
Boshlang'ich sinflarda zid ma'noli so'zlardan o'rinli foydalanish ko'nikmasini shakllantirish.....	335
M.A.Kuchkarova	
Развитие креативности учащихся с помощью игровых методов обучения	338
Z.M.Sidikova, X.T.Ibroximova	
Allomalar merosi vositasida o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik yo'nalishlari	342
K.Sh.Nishonova	
Boshlang'ich ta'limda integrativ ta'lim va uning turlari.....	347
A.R.Dilbarjonov	
Zamonaviy ta'lim jarayonida interfaol usullar va zamonaviy axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga tatbiq etish usullari	350
I.V.Xoldarova, M.D.Akbarova	
Kichik yoshli o'quvchilarni savodga o'rgatishda axborot texnologiyalaridan foydalanishning samarasi	354
M.M.Abdumannopov	
Ta'limni raqamlashtirish sharoitida talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini rivojlantirish masalalari	358
T.Y.Bakirov, O.S.Axmadjonova	
Maktab matematikasida kasrlar mavzusini induktiv metodika asosida o'qitish xususiyatlari	362
N.A.Qodirova	
Texnika oliy o'quv yurtlari talabalarida yozish ko'nikmalarini wiki- texnologiya asosida rivojlantirish metodikasi” (Ingliz tilini o'qitish misolida).....	366
Z.N.Ortiqova	
Oilada bolalarni milliy qadriyatlar va an'analar asosida tarbiyalashning pedagogik omillari	370
M.N.Nasritdinova, T.A.Egamberdiyeva	
Ta'limda o'zlashtirish samaradorligini oshirishda artpedagogikaning o'rmi	377
I.Kirgizov	
“Ey sabo” – komil insonga aksiologik yondashuv.....	381
A.T.Karimov	
Milliy musiqaning shakllanishi va rivojlanishida xalq qo'shiqlarini qayta ishlashning o'ziga xos tamoyillari	386
A.M.Nurmuxammadjonov	
Jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichida yoshlar musiqiy tafakkurini yuksaltirish zaruriyati.....	390
M.M.Najmetdinova	
Ommaviy-madaniy tadbirlar tushunchasining mazmun-mohiyati va konseptual asoslari	396
M.Kurbanova	
Dutor cholg'usi ijrochiligida musiqiy savodxonlikni shakllantirish metodlari.....	400
X.M.Shermatova	
Maktabgacha ta'lim tizimida zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati	403
T.N.Shokirov	
Markaziy Osiyo madaniyati va san'ati jahon madaniyatining rivojlanish chorrahasi	407
B.M.Qurbonova	
Ijodkor ongida badiiy tafakkur holatini o'zgartirishga sabab bo'luvchi omillar	410
L.Sh.Shukurova	
Zardo'zlik san'ati buyumlarining badiiy uslubiy jihatlar va uning ilmiy tahlili.....	415
A.A.A'zamjonov	
Yangi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyat qurishda tasviriy va amaliy san'atning o'rmi	419
A.A.Abdisattorov	
Musiqi fani o'qituvchisining ijodiy kompetentligini rivojlantirish omillari	422
I.D.Rustamov	
O'zbek zarbli cholg'ularining ijtimoiy hayotdagi o'rmi (Doira cholg'usi misolida).....	428
A.A.Ergashev	
Vokal-xor ta'limida finale-2003 dasturining qo'llanishi.....	432
A.A.Mamurov	
Rishton kulolchilik maktabining rivojlanish bosqichlari	438



UO'K: 78.07.780.6

**DUTOR CHOLG'USI IJROCHILIGIDA MUSIQIY SAVODXONLIKNI SHAKLLANTIRISH
METODLARI****МЕТОДЫ ФОРМИРОВАНИЯ МУЗЫКАЛЬНОЙ ГРАМОТНОСТИ В ИГРЕ НА
ИНСТРУМЕНТЕ ДУТОР****METHODS FOR THE FORMATION OF MUSICAL LITERACY IN THE PERFORMANCE
OF THE INSTRUMENT DUTOR****Kurbanova Mukammal**

O'ZDSMI Farg'ona mintaqaviy filiali "Cholg'u ijrochiligi va musiqiy nazariy fanlar" kafedrasida dotsent v.b.

Annotatsiya

Maqolada dutor cholg'usi ijrochiligida musiqiy savodxonlikni shakllantirish metodlari, bo'lajak dutor o'qituvchisining o'z ustida ishlashi va o'z-o'zini baholab, kasbiy bilimlarini takomillashtirib borishi va zamonaviy metodlardan foydalanishi ko'zda tutilgan. Maqolada barcha musiqiy sozlar kabi dutor, dutor prima cholg'ulari ham ijrochilik amaliyotida o'z o'ziga xos ijrochilik xususiyatlari haqida, talabalarning yetuk ijrochi bo'lib shakllanishlaridagi eng asosiy jihatlardan biri ularning amaliyotda cholg'u ijrochiligi texnikasi bo'yicha muayyan bilimga va yetarli mahoratga ega bo'lishlari hamda mahoratli ijro texnikasini egallashda zarur bo'lgan gamma, arpedjio, pitstsikato kabi turli mashqlarni mustaqil ravishda egallab, muntazam shug'ullangan sozanda va ijrochilar ko'zlangan natijalarga erishish, dutorida zamonaviy ijrochilik maktabini shakllantirish uchun gamma va arpedjio aplikaturasini ishlab chiqish haqida fikrlar yuritilgan.

Аннотация

В статье рассматриваются методы формирования музыкальной грамотности в инструментальном исполнении дутора, работа будущего учителя дутора над собой и самооценкой, совершенствование своих профессиональных знаний и использование современных методов. В статье все музыкальные слова, такие как дутор, дутор прима об инструментах и их роли в исполнительской практике, а также о специфических исполнительских особенностях, одним из основных аспектов становления студентов зрелыми исполнителями является то, что они приобретают определенные знания и достаточные навыки в технике инструментального исполнения на практике, а также самостоятельно выполняют различные упражнения, такие как гамма, арпеджио, пиццикато, необходимые для овладения искусной техникой исполнения, с целью достижения намеченных результатов, развития аппликатуры гаммы и арпеджио для формирования современной исполнительской школы в дутаре.

Abstract

the article provides for methods for the formation of musical literacy in the performance of the dutor instrument, the work of the future dutor teacher on himself and self-assessment, improving his professional knowledge and using modern methods. The article focused on dutor, dutor prima instruments as all musical instruments have their place in Ham performance practice and their unique performance characteristics, one of the most basic features in students' formation as mature performers is that they have a certain knowledge and sufficient skill in instrument performance techniques in practice, and develop the gamma, arpedjio, pitstsikato, which are necessary in mastering skilled performance techniques.

Kalit so'zlar: cholg'u, ijrochi, musiqa, savodxonlik, prima, amaliyot, texnika, gamma, arpedjio, sozanda, aplikatura.

Ключевые слова: инструмент, исполнитель, музыка, грамотность, прима, практика, техника, гамма, арпеджио, настройка, аппликатура.

Key words: instrument, performer, music, literacy, prima, practice, technique, gamma, arpedjio, soloist, applicatura.

KIRISH

"O'zbekiston Respublikasi Prezidentining madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi 02.02.2022 yildagi PQ-112-son qarorida belgilangan 2022/2023 o'quv yilidan boshlab ta'lim muassasalarida o'quvchi va talabalarning musiqiy bilim va ko'nikmalarini oshirish, ularning qalbidagi milliy madaniyatga bo'lgan muhabbatni

PEDAGOGIKA

shakllantirish, yosh iste'dodlarni aniqlash va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi" va shunga o'xshash musiqa san'atini rivojlantirish maqsadida bir qator qarorlar qabul qilangani buning yaqqol tasdig'idir[1].

o'quvchilarga mazkur qarorga 1-ilovadagi ro'yxatda keltirilgan milliy musiqa cholg'ularidan kamida bittasida kuy ijro etish ko'nikmalari o'rgatiladi hamda bu haqda ularning ta'lim to'g'risidagi hujjatiga (shahodatnoma) tegishli qayd kiritiladi;

mazkur qarorga 1-ilovadagi ro'yxatda keltirilgan milliy cholg'ulardan kamida bittasida, 2023/2024 o'quv yilidan boshlab esa kamida uchtasida kuy ijro etish mahoratiga ega bo'lish musiqa fani o'qituvchilari uchun majburiy hisoblanadi;

musiqa san'ati bo'yicha professional ta'lim hamda oliy ta'lim to'g'risidagi hujjatga ega bo'lgan, kamida 3 ta milliy musiqa cholg'ularida mahorat bilan kuy ijro eta oladigan mutaxassislarni asosiy ish joyidan bo'sh vaqtda u erdagi mehnatga haq to'lash shartlarini saqlab qolgan holda o'rindoshlik asosida umumiy o'rta ta'lim muassasalari musiqa fani o'qituvchisi va musiqa yo'nalishidagi to'garak rahbari lavozimiga to'liq stavkada ishga qabul qilishga ruxsat beriladi;

musiqa fani o'qituvchilarini kamida uchta milliy musiqa cholg'ularida kuy ijro etishga o'rgatish xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi doirasida amalga oshiriladi, bunda qayta tayyorlash (malaka oshirish) kurslarida mashg'ulot olib borish uchun madaniyat va san'at sohasi vakillari shartnoma asosida jalb etiladi;

Aynan ana shu qaror va murojatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda bo'lajak musiqa o'qituvchilarining dutor cholg'usi ijrochiligida musiqiy savodxonlikni shakllantirish metodlari masalasi e'tiboriga molikdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT USLUBLARI

Mavzuga oid adabiyotlarni tahlil etar ekanmiz, Shavkat Rahimov boshchiligidagi "Dutor" musiqa va san'at maktablari uchun o'quv qo'llanma musiqa va san'at maktablari o'quvchilari uchun mo'ljallangan. undan milliy dutor, alt dutor va prima dutori cholg'usi uchun moslashtirilgan o'zbek xalq kuylari hamda jahon kom'ozitorlarining asarlari o'rin olgan qator izlanishlar olib borganlar[2]. Iqbol Toshpo'latova "An'anaviy cholg'u ijrochiligi" oliy talim muassasalari talabalarini uchun o'quv qo'llanmasida "Shashmaqom" tarkibidagi dutor cholg'u ijrochiligiga xos bo'lgan 24 ta maqom kuylari cholg'uga mos holda notaga olingan va ulardan 4 yil mobaynida kontsert-'edagogik re'ertuarlarni boyitishda foydalanish mumkin[3]. R.Hojieva "Dutor taronalari" nomli ushbu o'quv qo'llanmada Respublikamizning oliy, o'rta-maxsus madaniyat va san'at o'quv yurtlarida dutor ixtisosligi bo'yicha saboq olayotgan talabalar va o'quvchilar uchun mo'ljallangan. Mazkur kitobda O'zbekiston kompozitorlarining asarlari bilan birga chet el, rus va boshqa xalq kuylaridan ham namunalar berilgan. To'plamga kiritilgan asarlardagi dutor partiyasining ijrochilik tahriri muallif tomonidan dutor uchun moslashtirilgan bo'lib, unda asosan dutor ijrochiligi san'atida qo'llaniladigan ijro uslublari keltirilgan[4].

NATIJAR VA MUHOKAMA

Yosh avlodni milliy istiqloq g'oyalari ruhida tarbiyalash, qadriyatlarimizni va milliy musiqa madaniyatimizni har qachongidan chuqurroq o'rganish, hamda xalqimizning o'zligini anglash, o'z urf-odatlarini saqlay bilishi, ularni tiklab, avaylab, e'zozlab, yangi o'sib kelayotgan yosh avlodga yetkazib berish bugungi kunning muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Yosh avlodni milliy-ahloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning muhim vositalaridan biri sifatida ularni har taraflama estetik badiiy did sohibi bo'lib yetishishida milliy musiqa merosining cholg'uchilik san'ati orqali tanishtirib borish alohida ahamiyat kasb etadi. Dutor nafaqat O'zbekistonda, O'rta Osiyo xalqlari, hususan tojik, uyg'ur, qoraqal'oq, turkman xalqlarida ham keng tarqalgan. Bu cholg'uda milliy kuylar bilan bir qatorda, barcha chet el kom'ozitorlari tomonidan yozilgan har jihatdan murakkab asarlarni ham moxirona ijro etish mumkin. Dutor asarlarni mustaqil o'rganish va ularni ongli ravishda o'zlashtirish, ijro etish sozanda uchun tanlagan kasbini sevishi, tinimsiz mehnat qilishi zarur bo'ladi.

Dutor sozi uchun moslashtirilgan maqom turkum asarlari asosida asosan Buzruk va Rost maqomlarining cholg'u va ashula yo'llari, birinchi va ikkinchi guruh shu'balaridan turkum asarlar kiritilgan. Turkum asarlarni tuzishda dutor cholg'usida ijro etiladigan asarlarni talqin qilishdagi asosiy vazifalar maqsad qilib olingan. Ijrochilikda qo'llaniladigan turli xil zarblar, bezaklar, qochirim, nola, kashishlar imkon darajasida ko'rsatib berishga harakat qilindi. Asarni eshitib, so'ngra nota 5 yozuvda aks ettirilgan yozuvlarga ahamiyat bergan holda ijro etilsa, talaba-sozandaga har tomonlama qulaylik yaratiladi. Albatta, har bir sozanda o'z imkoniyati, iste'dodi, bilimi orqali

ko'rsatilgan kuylarni ijodiy talqin qilishi, idroklagan darajasi, asarni tushunishiga qarab undagi zarblar va bezaklarni to'ldirishi mumkin. Chunki, maqom kuy va ashulalari, milliy ijrochilgimizning cheksiz izlanishlarga boy ijodiy jarayoni hisoblanadi.

Dutor Markaziy Osiyoning o'zbek, tojik, turkman va uyg'ur xalqlari orasida

keng tarqalgan cholg'ulardan biridir. O'lkamizning musiqa sozlari orasida dutor o'zining mayin, xonaki tovushi bilan alohida ajralib turadi. Ayni paytda bizning Respublikamizda dutor ijrochiligi to'rt asosiy local uslubga bo'linadi. Bular: Xorazm, Samarqand–Buxoro, Qashqadaryo–Surxondaryo va Farg'ona –Toshkent uslublaridir. Bu uslublar ichida Xorazm va Farg'ona –Toshkent mahalliy yo'llari alohida ajralib turadi. Nafaqat folklor va klassik san'atida, balki ijrochilikda shu vohalar cholg'u sozining tuzilishi va ijro etilishida o'ziga xos xususiyatlar bilan bir-biridan farq qiladi. Vohalar ijro uslublarining takomillashib borishi natijasida dutor ijrochiligida turli maktablar vujudga keldi. Bu ijro maktablari vohalarining o'ziga xos an'analari, shevalari va urf –odatlar bilan uyg'unlashib ketgan. Bu avvalo cholg'u sozi ko'rinishida gavdalandi.

Barcha musiqiy sozlar kabi dutor, dutor prima cholg'ulari xam ijrochilik amaliyotida o'z o'rnini va o'ziga xos ijrochilik xususiyatlariga egadir. Talabalarning yetuk ijrochi bo'lib shakllanishlaridagi eng asosiy jixatlardan biri ularning amaliyotda cholju ijrochiligi texnikasi bo'yicha muayyan bilim va yetarli mahoratga ega bo'lishlaridir. Iste'dodning yarmi – mashq, deb bejiz aytishmagan. Shu bois mahoratli ijro texnikasini egallashda zarur bo'lgan gamma, arpedjio, pitsikato kabi turli mashqlarni mustaqil ravishda egallab, muntazam shug'ullangan sozanda va ijrochilar ko'zlangan natijalarga erishadilar. Dutorida zamonaviy ijrochilik maktabini shakllantirish uchun gamma va arpedjio aplikaturasini ishlab chiqish, albatta, talab qilinadi.

XULOSA

Har bir kashfiyot ilmiy-ijodiy izlanishlardan boshlanib, uzoq muddatli yaratilish jarayoni natijaning nufuzidan kelib chiqib kuzatiladi va so'ng tadqiqot qilinadi. Bunday jarayonlar yillarni, kerak bo'lsa asrlarni qamrab oladi. Yuksak namuna amaliy foydalanishda an'anaga aylangungacha davom etadi. Ze'ro, kashfiyot an'anaga aylanmas ekan, keng miqyosda qabul qilinmas ekan u xalq mulki, milliy iftixori darajasiga ko'tarilmaydi. Dutor - o'zbek xalqi ma'naviyatining in'ikosidir. Shu bois uzoq o'tmishdan nola-yu sadolari bilan qalblarimizni to'lqinlantirib, inson ruhiga madad berib keladi. Bu borada oliy o'quv yurti professor – o'qituvchilari tomonidan talabga javob beradigan darsliklar, o'quv uslubiy qo'llanmalar, dasturlar yaratilib kelinmoqda. Ta'lim tizimining barcha sohalarida zamonaviy texnologiyalar va metodlardan foydalanib kelinmoqda. O'tiladigan har bir darslarni zamonaviy metodlar yordamida tashkil qilish talabalarni mustaqil ravishda darslarga tayyorlanib kelishlarida katta-ahamiyatga ega. Bilim, ko'nikmalar avvaloambor talabani o'ziga bo'lgan ishonchini, erkin fikrlashini, o'z fikrini boshqalarga yetkaza olishini shakllantiradi. Shu o'rinda tushuntirish metodi, hikoya metodi, suhbat metodi, ijrochilik ko'nikmalari bilan ishlash metodi, namoyish metodi, namuna metodi mashq qildirish metodi, o'yin metodi, rag'batlantirish metodi, savol-javob metodlaridan foydalanilsa kelajakda talabalar o'z cholg'ularini mukammal ijro qilishlari balki ulardan yaxshi ustoz – murabbiy bo'lib yetishishida o'z samarasini beradi. Bunga javoban ta'lim beruvchi ustozlar doim izlanishda bo'lib, o'z ustida muntazam ishlab borishlari, va albatta malakalarini ham oshirib borishlari kerak bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining madaniyat va sanhat sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi 02.02.2022 yildagi PQ-112-son qarori.
2. Rahimov Shavkat. Dutor: Musiqa va san'at maktablari uchun o'quv qo'llanma. - T., 2004. 106b
3. Toshpo'latova I.S. An'anaviy cholg'u ijrochiligi (dutor). O'zbekiston davlat konservatoriyasi talabalari uchun o'quv qo'llanma (o'zbek tilida). - T., 2017. – 123 bet.
4. R.Hojieva DUTOR TARONALARI Toshkent 2007.